

## MEDIATIV KELISHUV

**Jumayeva Gulasal Saydulla qizi**  
*Yakkasaroy tumani Yuridik xizmat*  
*ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti*

Zamonaviy jamiyatning globallashuvi sharoitida subyektlarning o'zaro munosabatlarida nizolarni hal qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mediatsiya tartib-taomili esa tomonlarga sheriklik munosabatlarini saqlab qolishga, oilaviy munosabatlar kabi ijtimoiy sohalarida, iqtisodiy sohada, korporatsiyalararo, moliya va bank sektorida nizolarni hal etishga yordam beradi.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda nizolarni sudga qadar hal etishga, jamiyatdagi va oiladagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilayotgan e'tibor yildan yilga oshmoqda.

Shu munosabat bilan, bugungi kunda mediatsiya institutini yanada takomillashtirish bo'yicha ko'plab ishlar olib olib borilmoqda. Xususan, xorijiy hamkorlik doirasida trening, seminar va ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etishlarni ta'kidlash mumkin. Hattoki, nizolarni hal etish masalasi mamlakatimizning taraqqiyot strategiyasida rejalashtirilgan maqsad sifatida qayd etildi. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 15-maqsadi "Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish" da nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish kabi vazifalar belgilanib qo'yildi.<sup>25</sup> Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17 -iyundagi "Nizolarni muqobil hal etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PQ-4754-son qarorida sohada islohotlarning hozirgi bosqichi davlat organlarida nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarini fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutlarga aylantirish lozimligi kabi vazifalar belgilab berilgan.<sup>26</sup>

Xorijiy mamlakatlarda mediatsiyaga talab darajasi yuqori bo'lib, mazkur soha o'z navbatida qonunchilik bilan tartibga solishni talab qiladi. Masalan, BMT savdo huquqi uchun "Xalqaro tijorat kelishuvi to'g'risida"gi Model qonunini (UNICITRAL) nashr

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son)

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020 yil 18 iyun, 06/21/3/1037-son

etadi. AQSHda esa “Yagona mediatsiya akti” ishlab chiqilgan. Rossiya Federatsiyada tijorat nizolarini hal qilish usuli sifatida mediatsiyadan foydalanish Arbitraj protsessual kodeksining qoidalarida mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasida ham huquq tizimining o‘ziga xos jihatlarini qamrab olgan holda 2018-yil 3-iyulda “Mediatsiya to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi.<sup>27</sup> Shuningdek, fuqarolik huquqiy munosabatlardan, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek yakka mehnat nizolariga va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo‘llash bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan huquqiy asosda yechim beradigan qonunchilik bazasi yaratildi. Bu esa, mediatsiya sohasi zamonaviy jamiyat uchun dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ko‘rsatadi.

Jumladan, AQShda hozirgi kunda mazkur davlatning turli shtatlarida avval mavjud bo‘lgan va vositachilik faoliyatini tartibga solgan 2 500 dan ziyod qonunni birlashtirgan mediatsiya to‘g‘risida yagona qonun amal qilmoqda. Mazkur davlat tajribasining ahamiyati shundaki, davlatning huquq tizimi ko‘pgina nizolarni taraflar sudgacha ixtiyoriy hal qilishini ta‘minlashga qaratilgan.

Shuningdek, sud tartib-taomillari boshlangan bo‘lsa ham sudya jarayonni to‘xtatishi va tomonlarga nizoni mediator yordamida hal etishni tavsiya qilishi mumkin. Mamlakatda iqtisodiyot, siyosat, biznes sohasidagi hech bir jiddiy muzokara jarayoni mediatorlarsiz o‘tmaydi. AQShda munozaralarni hal qilishning milliy instituti tashkil etilgan bo‘lib, u mediatsiyaning yangi usullarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Mediatsiyaning xususiy va davlat xizmatlari faoliyat ko‘rsatadi, mediatsiya muammolarini yoritib boradigan jurnallar chop etiladi.

Buyuk Britaniyada betaraf vositachilar ishtirokida yarashtirish ommalashgan. Mamlakatda maxsus telefon xizmati ham mavjud bo‘lib, unga mamlakatning istalgan hududidan qo‘ng‘iroq qilish, nizoni ta‘riflash, shuningdek mediatorlikka o‘ziga ma‘qul nomzodlarni keltirish, talablarga mos keladigan mutaxassislar ro‘yxati bo‘yicha takliflar olish mumkin. Sud himoyasiga murojaat qilingan taqdirda, agar taraf sud nizosi doirasida sud tomonidan taklif etilgan mediatsiya tartib-taomilidan foydalanishdan voz kechgan bo‘lsa, uning zimmasiga nizoni ko‘rib chiqish natijalaridan qat‘iy nazar barcha sud xarajatlari yuklanadi.

Germaniyada mediatsiya instituti odil sudlov tizimi bilan o‘zaro uyg‘un holga keltirilgan. Misol uchun, vositachi mediatorlar bevosita sudlarda ish olib boradi va ehtimoliy sudlashuvlar sonini kamaytiradi. Germaniyada mediatsiya nafaqat oilaviy ishlar bo‘yicha sudlarga, balki umumiy yurisdiksiya sudlariga, ma‘muriy sudlarga va boshqa sudlarga integratsiya qilingan. Mamlakatning ko‘pchilik huquq maktablarida

<sup>27</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi 2018-yil 3-iyuldagi O‘RQ-482-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.01.2020 y., 03/20/602/0052-son.

doimiy mediatsiya kursi joriy etilgan. Xususan, yuridik fakultetni bitirgan istalgan kishi mediatsiya kursidan o'tadi.

Avstriyada mediator kasbi mavjud bo'lib, mediatorlarni tayyorlashni tartibga soladigan muayyan normativlarini belgilab beradigan mediatsiya to'g'risida qonun amal qiladi. Avstriya qonun hujjatlarida nazarda tutilishicha, sud jarayonida tuzilgan mediatsiya kelishuvi sud tomonidan e'tirof etiladi.

Shuningdek, jamiyat taraqqiy etgani sari ijtimoiy munosabatlar murakkablashib, nizoli holatlar ko'payib boradi. Mazkur holatda har bir davlat uchun mediatsiya institutini takomillashtirib, samarali mexanizmni yo'lga qo'yishni talab qiladi.

Tarixiy davrlardagi nizolarni hal qilishning muqobil varianti ya'ni, hozirgi mediatsiya tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmida AQSh, Buyuk Britaniya va Avstraliyada rivojlana boshlagan. Dastlab yevropada mediatorlar oilaviy munozaralarni hal qilishga jalb qilingan<sup>28</sup>. Mediatsiya haqida ko'plab huquqshunos olimlar tomonidan turli xil ta'riflar berilgan. Masalan, huquqshunos Saymon Fisher mediatsiyaga "mediatsiya – betaraf uchunchi tomonlar ishtirokida bahslarni yechishning muqobil va yashirin usuli"<sup>29</sup> deya ta'rif berib o'tgan, A.Yu.Konnov mediatsiyani muzokara sifatida ko'rgan, lekin bunda muzokaraning mediatsiyadan asosiy farqi yuzaga kelgan nizoni hal qilish maqsadida mustaqil uchunchi shaxs ishtirok etishini hisobga olish lozimligi<sup>30</sup>, Sh.M.Masadikov esa "mediatsiyani taraflarga o'zaro maqbul kelishuvga erishishiga ko'maklashuvchi va qaror chiqarish huquqiga ega bo'lmagan betaraf mediator yordamida ular o'rtasidagi nizoni hal qilish usuli" sifatida tushungan<sup>31</sup>.

Mediatsiya tushunchasi lotincha "mediare" – vositachilik so'zidan kelib chiqqan bo'lib, mediatsiya uchunchi, betaraf tomon ishtirokidagi muzokaralar hisoblanadi, u nizolashayotgan tomonlar uchun eng foydali tarzda hal etish jarayonidir. Mediatsiya usullari asosan hamkorlikda muzokaralar olib borishga tayanadi.

Mediatsiya – taraflar o'rtasida kelib chiqqan nizolarni ular o'zaro qulay qarorga kelishi uchun ixtiyoriylik asosida uchunchi shaxs(mediator) yordamida nizoni hal qilish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq: mediativ kelishuv fuqarolik huquqiy munosabatlarga, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek yakka mehnat nizolariga hamda oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga, iqtisodiy nizolarga tadbiiq etiladi. Lekin shuni aytib o'tish lozimki, ushbu mediativ kelishuv mediatsiyada ishtirok etmayotgan uchunchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamoat manfaatlariga daxl qiladigan

<sup>28</sup> Кучерявая Н, юридик фанлар доктори, профессор Нууқ ва бurch, 2017 йил 12-сон [www.huquqburch.uz](http://www.huquqburch.uz)

<sup>29</sup> Медиаторнинг ён дафтарчаси "Интернешнл Алерт"(International Alert) ва "Халқарохолислик учун" Фонди, Бишкек 2013 18 бет. [www.international-alert.org](http://www.international-alert.org)

<sup>30</sup> Коннов А.Ю. Понятие, классификация и основные виды альтернативных способов разрешения споров // Журнал российского права. –№12. –2014, декабрь.

<sup>31</sup> Масадиков Ш.М.Перспективы медиации как альтернативного способа разрешения гражданско-правовых споров в Узбекистане // <https://elibrary.ru>.

yoki daxl qilishi mumkin bo'lgan nizolarga oid bo'lsa, bunday ishlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Mediatsiyada nizoni muayyan shartlar asosida tugatish to'g'risidagi qaror har doim taraflarning o'zlari tomonidan qabul qilinadi, sababi mediator nizo taraflari uchun majburiy bo'lgan qaror qabul qilish huquqiga ega emas. Mediatorning vazifasi tomonlarga bir-birini yaxshiroq tushunishga, kelishuvga erishishga, pozitsiyalarini yaqinlashtirishga yordam berishdan iborat. Bundan tashqari ba'zi hollarda mediator nizoni hal qilish mumkin bo'lgan shartlar variantlarini topishga yordam beradi.

Mediator dalillarni tekshirmaydi va tomonlarning da'volarining qonuniyligini baholamaydi, uning asosiy vazifasi tomonlar o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunishni ta'minlash, muammoni barcha ishtirokchilar uchun maqbul shartlarda hal qilish imkoniyatini aniqlash va amalga oshirishga yordam berishdir.

Mediatsiya jarayonida uchinchi tomon ya'ni, mediator muzokaralarni shunday boshqarishi kerakki, bunda tomonlar realistik va har ikki tomonning manfaatlarini qondiradigan eng foydali kelishuvga kelishishlari kerak. Fanda ham "mediatsiya" va "vositachilik" tushunchalari ekvivalent sifatida ishlatiladi.

Mediatsiya - bu nizolashayotgan tomonlar neytral vositachi yordamida muammolarni aniqlaydigan, ularni hal qilish yo'llarini aniqlaydigan, nizoni tugatish variantlarini tahlil qiladigan va nizoni hal qilishning eng maqbul variantini tanlaydigan jarayondir.

2002-yilda BMTning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (UNCITRAL) BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Xalqaro tijorat kelishuvi to'g'risida"gi namunaviy qonun qabul qilingan hamda tasdiqlangan.<sup>32</sup> Ushbu namunaviy qonunning qabul qilinishi dunyoning turli burchaklarida yarashuv amaliyotining kengayishiga olib keldi hamda tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida yuzaga keladigan nizolarni hal etishda alohida o'rin tuta boshladi.

2004-yil iyun oyida Bryusselda Yevropa Komissiyasi ko'magida muqobil nizolarni hal qilish bilan shug'ullanadigan 30 dan ortiq Yevropa tashkilotlari vakillari bo'lgan amaliyotchi mediatorlar tashabbus guruhi tomonidan Mediatorlar uchun "Yevropa xulq-atvor kodeksi" ishlab chiqildi. Mazkur kodeksga ko'ra, mediator muzokaralarni shunday boshqaradiki, bunda tomonlarning manfaatlari birinchi o'ringa chiqadi. Ya'ni, mediatsiya jarayonida erishilgan yechim o'zaro manfaatli bo'ladi, g'olib va yutqazadigan taraflar bo'lmaydi.<sup>33</sup>

Fanda mediatsiya tushunchasiga olimlar tomonidan ta'riflar ko'plab uchraydi. Xususan, yurtimiz olimlaridan, Ye. I. Nosirovaning ta'kidlashicha, "mediatsiya – bu

---

<sup>32</sup> Универсальный характер медиации Опыт и свидетельство Европы :триптих Доклад, подготовленный в рамках первой русско - французской конференции по медиации. Год Франции в России и России во Франции Москва, 30 сентября 2010.

<sup>33</sup> Универсальный характер медиации Опыт и свидетельство Европы :триптих Доклад, подготовленный в рамках первой русско - французской конференции по медиации. Год Франции в России и России во Франции Москва, 30 сентября 2010.

nizo bo'yicha taraflarga muzokaralar olib borish va kelishuvga erishishda yordam beradigan, taraflar tomonidan saylangan, mediator deb ataladigan uchinchi shaxs yordamida hal qilish tartibidir.”

Sh.M.Masadikov mediatsiyani “taraflarga o‘zaro maqbul bo‘lgan kelishuvga erishishiga ko‘maklashuvchi va qaror chiqarish huquqiga ega bo‘lmagan betaraf mediator yordamida ular o‘rtasidagi nizoni hal etish usuli sifatida tushunadi.<sup>34</sup>”

F.X.Otaxonovning ta’kidlashicha, “mediatsiya maxfiylik, ixtiyoriylik, tomonlarning hamkorligi va teng huquqligi, mediatorning xolisligi va mustaqilligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.<sup>35</sup>”

O.Xolmizaev va R.Sagatov mediatsiyaning quyidagi prinsiplarini ajratib ko‘rsatgan: “taraflarning teng huquqliligi, ixtiyoriyligi, o‘zaro hurmati, maxfiyligi, jarayonning maxfiyligi, shaffofligi, mediatorning xolisligini ta’kidlaydi.<sup>36</sup>”

T.A.Savelyevaning fikricha, “mediatsiya (mediatsiya) munozarali masala bo‘yicha taraflar uchun majburiy bo‘lgan kelishuvni ishlab chiqish maqsadida taraflar o‘rtasidagi nizolarni neytral vositachi ishtirokidagi muzokaralar asosida hal etish usulidir. Shu bilan birga, tadqiqotchi mediatorning tomonlar uchun majburiy bo‘lgan qaror qabul qilish vakolatiga ega emasligini ta’kidlaydi.”

Chet el olimlarining mediatsiya bergan ta’riflar qandayligini quyida ko‘rib o‘tamiz.

V.F.Yakovlev “mediatsiya nizolarni hal etish bo‘yicha mutaxassisning nizolashayotgan taraflar o‘rtasida kelishuv bitimini tuzish maqsadida olib boriladigan muzokaralar doirasidagi faoliyati” deb hisoblaydi.

X. Zillessen vositachilikni “bir necha qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi har qanday manfaatlar to‘qnashuvida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy vosita” deb ta’riflagan. Tadqiqotchi nizolarni neytral hal etish bo‘yicha mediatsiya bo‘yicha tayyorlangan mutaxassislardan foydalanishga katta ahamiyat beradi<sup>37</sup>.

Huquqshunos K.Xaptalaning fikricha, “mediatsiyada eng muhimi, nizo ustidan hokimiyat konfliktli shaxslarga beriladi”. Amerikalik tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, vositachilik tomonlarning o‘zlari tomonidan ikki shaxs, guruhlar o‘rtasidagi ziddiyatlarda, shuningdek, siyosiy qarama-qarshiliklarda qo‘llaniladigan ko‘p bosqichli nizolarni hal qilish jarayoni.

Yuqorida keltirilgan fikrlar hamda olimlarning qarashlarini umumiyashtirgan holda quyidagilarni mediatsiyaning tavsiflovchi xususiyatlari deb aytishimiz mumkin:

<sup>34</sup> Nizolarni hal qilishning yangi usullari: mediatsiya. [https://www.norma.uz/oz/bizning\\_sharhlar/nizolarni\\_hal\\_qilishning\\_yangi\\_usullari\\_mediatsiya](https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/nizolarni_hal_qilishning_yangi_usullari_mediatsiya)

<sup>35</sup> Отахонов Ф. Правовые основы и перспективы развития медиации в Узбекистане // Правосудие. 2019. – №6. – С.98.

<sup>36</sup> Холмирзаев О., Сагатов Р. О роли и значении медиаторов в странах Центральной Азии//Правосудие. Ташкент 2019. №3. – С.98

<sup>37</sup> МЕДИАЦИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ: Материалы Всероссийской научно-практической конференции (Курск, 30 апреля 2019 года). – Курск: ЮгоЗапад. гос.ун-т, 2019. – 252 с

1) Faqat nizada ishtirok etmagan neytral shaxs vositachi bo‘lishi mumkin;

2) Mediatsiya o‘zaro maqbul yechimni izlashni o‘z ichiga oladi (tomonlar yoki mediator nizoni hal qilishning o‘z variantlarini taklif qilish huquqiga ega);

3) mediator muzokaralarda xotirjam muhit yaratadi, vazifalarni belgilaydi va bahsli nizoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan yo‘nalishga yo‘naltiradi. Mediatorning asosiy vazifasi muhokama jarayonini o‘zi tashkil etish, taraflarni hamkorlikka yo‘naltirish, ma‘lum bir ijobiy natijaga va maqsadga erishish hisoblanadi.

Mediatsiya jarayoni nizolashayotgan tomonlarning tashabbusi bilan istalgan bosqichda va istalgan vaqtda tugatilishi mumkin. Agar mediatsiya ular kutgan natijani bermasa, ular har doim mediatsiyani rad etishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonunining 15-moddasida mediatsiyani qo‘llash shartlari keltirib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

“Mediatsiya taraflarning istagiga muvofiq tuziladi. Agarda ulardan biri bosh tortsa mediativ kelishuv tuzilmaydi.

Mediatsiya suddan tashqari tartibda, nizoni sud tartibida ko‘rish jarayonida, sud hujjatini qabul qilish uchun sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirguniga qadar hamda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida qo‘llanilishi mumkin.

Bundan tashqari mediativ kelishuv nizoni hakamlik sudida ko‘rish jarayonida ham hakamlik sudining qarori qabul qilinguniga qadar qo‘llanilishi mumkin.

Mediatsiya sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida qo‘llanilgan taqdirda faoliyatini professional asosda amalga oshiruvchi mediatorning albatta ishtirok etishi talab etiladi.

Mediatsiya quyidagi hollarda tugatiladi (O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonunining 24-moddasi):

tarafklar tomonidan mediativ kelishuv tuzilganligi;

nizo xususida o‘zaro yakdil qarorga erishish imkoniyati yo‘qligi;

mavjud ixtiloflar bo‘yicha kelishuvga erishmay turib mediatsiyani tugatish to‘g‘risida taraflarning kelishuvi tuzilganligi (mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to‘g‘risida yozma kelishuv mavjud bo‘lgan taqdirda);

biror-bir tarafning mediatsiyani davom ettirishdan voz kechishni ma‘lum qilganligi;

mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish muddatlari o‘tganligi.

Agar mediator taraflarning biridan mediatsiyaga taalluqli axborotni olgan bo‘lsa, u bu axborotni faqat uni taqdim etgan tarafning roziligi bilan boshqa tarafga oshkor qilishi mumkin.

Va nixoyat mediatorga haq to‘lash masalasiga to‘xtalsak:

Professional asosdagi mediatorning faoliyati haq evaziga yoki tekin amalga oshirilishi mumkin.

Noprofessional asosdagi mediatorning faoliyati tekinga amalga oshiriladi. Noprofessional mediatorga uning mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish bilan bogʻliq holda qilgan xarajatlarining, shu jumladan nizoni koʻrib chiqish joyiga borib kelish uchun yoʻl haqi, yashash va ovqatlanish xarajatlarining oʻrni qoplanishi mumkin.

Haq toʻlash va xarajatlarning oʻrnini qoplash taraflar tomonidan, agar ular boshqacha qoida haqida kelishib olmagan boʻlsa, teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Mediator mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishni rad etgan taqdirda, u mediatsiya taraflari tomonidan oʻziga toʻlangan pul mablagʻlarini qaytarib berishi shart.

professional mediatorlar faoliyatini tartibga soluvchi “Mediatsiya toʻgʻrisida”gi qonunda koʻrsatilgan talablardan tashqari professional mediator mediatsiya sohasida kengroq amaliy koʻnikmalarga va bilimlarga ega boʻlishi lozim. Shuningdek, qonunchilikda professional mediatorning biror sohada mutaxassislik maʼlumotiga ega boʻlishligi lozimligi aniq belgilanmagan. Chunki, professional mediator mediatorlik faoliyatini amalga oshirishda oilaviy, fuqarolik, mehnat, uy-joy, iqtisodiy va tadbirkorlik bilan bogʻliq nizolarni hal qiladi.

Qonunchilikda bundan tashqari mediatorlarga nisbatan malakasini muntazam oshirib borish boʻyicha talablar belgilanmagan. Mediatorlarning qancha muddatda attestatsiyadan oʻtishi kerakligi, mediatorlik faoliyatini olib borishda qoʻshimcha oʻquv kurslarni oʻqishi, muntazam malakasini oshirib borishi boʻyicha qoidalar oʻrnatilishi lozim deb hisoblaymiz.

Misol ushun, Germaniyada mediatorlik faoliyati bilan shugʻullanish uchun 120 soatlik mashgʻulotni tugatgan shaxslar boʻlishi, sertifikatlangan mediator 4 yil ichida 40 soatlik oʻquv kurslari orqali malakasini oshirish kerak. Germaniyada mediatsiya bilan shugʻullanuvchi shaxslar uchun normativ-huquqiy hujjatlar va qoidalar mavjud emas<sup>38</sup>. Shuning uchun advokatlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi shaxslardan tashqari har bir shaxs mediator sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Shuningdek, mediator hech bir idoradan majburiy akkreditatsiya (reyestr)dan oʻtish talab etilmaydi. Yuridik kasb vakillariga nisbatan turli xil qoidalar qoʻllaniladi. Sertifikatga ega mediator oʻz xizmatlarini reklama qilish huquqiga ega. Shu bilan birga, har bir mediator idorasi sertifikatlash boʻyicha oʻz malakaviy standartlarini belgilashi mumkin. Baʼzi idoralarda mutaxassislarni 200 soatlik oʻqitishni nazarda tutadigan standartlar ham mavjud.

Gruziya davlatida 2013-yil 1-oktyabrdan “Notarial mediatsiya” faoliyati yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, bunda fuqarolik nizolarini (oilaviy, meros bilan bogʻliq, mulkiy yoki nomulkiy nizolar va boshqa turdagi nizolar) hal qilishda muqobil shakli hisoblanadi. Bunday holda, notarius, mediator sifatida tomonlarga nizoli masalalarni kelishuv asosida yakunlashda yordam beradi. Mediatsiya tugagandan soʻng, notarius (mediator) tomonidan notarial tasdiqlangan hujjat yaʼni, notarial dalolatnoma beriladi. Notarial

---

<sup>38</sup> Mediations in Germany: Okiiverview by Jochen Lehman, Görg.



mediatorlik jarayoni nizoli tomonlarning iltimosiga binoan, notarial idorada yoki undan tashqarida amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, nizolarni hal etishda mediatsiya institutini joriy etishni keng ko'lamda amalga oshirish fuqarolarning nizolarni tinchlik, murosasiz yo'li bilan kelishgan holda amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'z navbatida ushbu jarayon ortiqcha sarsongarchiliklarsiz, xarajatlarsiz muammolarni hal qilishi usuli hisoblanadi.